

TERROBYTE HACKATHON 2024

Joriy yilning 23-25 aprel kunlari, Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining 15 yilligiga bag'ishlangan sovrin jamg'armasi 100 000 000 so'm bo'lgan **"TERROBYTE HACKATHON 2024"** o'tkazildi.

O'zbekistondagi turli oliygohlar talabalari va maktab o'quvchilaridan iborat **20 ta jamoa** ushbu hakatonda ishtirok etishdi. Undan tashqari hakaton doirasida Respublika sport dasturlash musobaqasi ham tashkil etilib, unda Respublikamizdagi **1200 ga yaqin o'quvchilar** robocontest.uz tizimida musobaqalashdilar.

"TERROBYTE HACKATHON 2024" dan asosiy maqsad, O'zbekiston bozoridagi turli sohalardagi muammolarga ochiq ma'lumotlardan foydalangan holda texnologik yechimlarni ishlab chiqish, shakllantirish hamda mavjud jarayonlarni takomillashtirish va yangi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining Technoparkida uch kun davomida bo'lib o'tgan Hackathon davomida ishtirokchilar topshiriq ustida ishladilar, ularga universitetning "Avtomatik boshqaruv va kompyuter muhandisligi" kafedrası o'qituvchilari va volontyorlar yordam berdilar.

"Future Logistics Hackathon: Innovation for UzAuto Motors Warehouse Automation and Product Search" musobaqa yo'nalishida quyidagi jamoalar g'olib bo'ldilar:

1-O'RIN: GEO CAR Jamoasi – 15 000 000 so'm

2-O'RIN: CYBERPUNK Jamoasi – 12 000 000 so'm

3-O'RIN: SHU BROTHERS Jamoasi – 9 000 000 so'm

Hakaton doirasida "Yosh dasturchi" Respublika sport dasturlash musobaqasi g'oliblari:

1-0'RIN: ASILBEK SUNNATOV – 8 000 000 so'm hamda Turin talabasi bo'lish imkoniyati;

2-0'RIN: HUSANBOY MANSURALIYEV – 6 000 000 so'm hamda Turin talabasi bo'lish imkoniyati;

3-0'RIN: ULUG'BEK RAHMATULLAYEV – 3 000 000 so'm hamda Turin talabasi bo'lish imkoniyati;

Hakaton doirasida "Dasturchi qizlar" Respublika sport dasturlash musobaqasi g'oliblari:

1-0'RIN: ZARNIGOR RAXIMOVA – 8 000 000 so'm hamda Turin talabasi bo'lish imkoniyati;

2-0'RIN: SOLIHA DAGAROVA – 6 000 000 so'm hamda Turin talabasi bo'lish imkoniyati;

3-0'RIN: OYSHA MIRZATILLAYEVA – 4 000 000 so'm hamda Turin talabasi bo'lish imkoniyati;

Bundan tashqari **"TERROBYTE HACKATHON 2024"** doirasida qo'shimcha nominatsiyalar bo'yicha o'quvchilar taqdirlandilar.







